



## THE WATER ISSUE BETWEEN AFGHANISTAN AND IRAN: SECURITY AND SOLUTIONS

**Boburjon B. Rikhsiboyev**

*Master's student*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [bobrixbak@gmail.com](mailto:bobrixbak@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** N. Spykman, "Rimland", A. Mehen, "Sea Power", Helmand River, transboundary rivers, hydropolitics, frozen problem, Harirud River.

**Received:** 28.04.24

**Accepted:** 30.04.24

**Published:** 02.05.24

**Abstract:** In this article, the approaches and theories of scientists to water, the geopolitical importance of water, water-related problems between Afghanistan and Iran, conflicts arising between the two countries due to misunderstandings in the use of water resources, the causes and consequences of existing problems, issues such as their impact on security, the status of the Helmand River today, and solutions to water issues between Afghanistan and Iran.

## AFG'ONISTON VA ERON O'Rtasidagi SUV MUAMMOSI: XAVFSIZLIK VA YECHIMLAR

**Boburjon B. Rikhsiboyev**

*magistratura talabasi*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [bobrixbak@gmail.com](mailto:bobrixbak@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** N. Spaykmen, "Rimland", A. Mehen, "Dengiz qudrati", Helmand daryosi, transchegaraviy daryolar, gidrosiyosat, muzlatilgan muammo, Harirud daryosi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqlolada olimlarning suvgaga bo'lgan yondashuvlari va nazariyalari, suvning geosiyosiy ahamiyati, Afg'oniston va Eron o'rta-sidagi suv bilan bog'liq muammolar, suv resurslaridan foydalanishdagi tushunmovchiliklar sababli ikki davlat o'rta-sida kelib chiqayotgan nizolar, mavjud muammolarning sabablari va oqibatlari, ularning xavfsizlikka ta'siri, Helmand daryosining bugungi kundagi holati va Afg'oniston va Eron o'rta-sidagi suv bilan

bog'liq muammolarning yechimlari kabi masalalar haqida so'z boradi.

## ВОДНЫЙ ВОПРОС МЕЖДУ АФГАНИСТАНОМ И ИРАНОМ: БЕЗОПАСНОСТЬ И РЕШЕНИЯ

**Бобуржон Б. Рихсибоеев**

Студент магистратура

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: [bobrixbak@gmail.com](mailto:bobrixbak@gmail.com)

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Н. Спайкман, «Римленд», А. Мехен, «Морская держава», река Гильменд, трансграничные реки, гидрополитика, проблема замерзания, река Харируд.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены подходы и теории учёных к воде, geopolитическое значение воды, водные проблемы между Афганистаном и Ираном, конфликты, возникающие между двумя странами из-за недопонимания в использовании водных ресурсов, причины и последствия существующих проблемы, такие вопросы, как их влияние на безопасность, статус реки Гильменд сегодня и решения водных проблем между Афганистаном и Ираном.

### KIRISH

Yer yuzida hayot mavjudligining asosiy manbalaridan birisuvdir. Kelajak masalasi sanalgan suv va undan to'g'ri foydalanish jahon miqyosida suvgaga bo'lgan talabning keskin o'sishi hamda o'z navbatida suv resurslarining tobora qisqarib borishi fonida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Suv nafaqat hayotimiz uchun zarur vosita bo'libgina qolmay, balki xaqlaro maydonda geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun vosita bo'lib ham xizmat qilishi mumkin. Afg'oniston va Eron o'rtasidagi suv muammosining tarixi ikki davlat o'tmishi kabi qadimiyyidir. Boshqa ko'pgina davlatlardan farqli o'laroq, Eron va Afg'oniston o'rtasida katta hududiy bahslar mavjud emas. Biroq, Helmand daryosidan oqib keladigan suvni taqsimlash bo'yicha kelishmovchiliklarning mavjudligi, ikki davlat munosabatlariiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

### ASOSIY QISM

Ushbu maqolada tarixiylik, qiyosiy-siyosiy tahlil metodlaridan hamda retrospektiv va perspektiv yondashuv metodologiyasidan foydalanilgan.

Mavzuni o'zbekistonlik olimlardan S. Bo'ronov, A. Ergashev, D. Jumaqul, H. Yunusov, Z. Mamatovalar o'zlarining turli darajadagi ilmiy ishlarida Afg'oniston xavfsizligi, Eron va Afg'oniston munosabatlari hamda suv muammolarini o'rganishgan g'arb olimlaridan, A. Mehen,

N. Spaykmen klassik nazariyalar orqali suvning siyosatga ta'sirini yoritishgan, eronlik va afg'onistonlik olimlardan A. Alihaniy, A. Deghan, M. Mirzayi kabilar mavzuga oid atroflicha o'rghanishgan [1].

Suv geosiyosiy manfaatlarni amalgalashda muhim ro'1 o'ynovchi vosita bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrlarni tarixda ko'plab olimlar o'z qarashlari orqali ifoda etganlar. Ulardan eng mashhurlaridan biri Nikolas Spaykmen o'zining 1944- yilda chop etilgan "Tinchlik geografiyasi" kitobida "Rimland" nazariyasini ilgari surdi. Spaykmen global kuch "Rimland" deb nomlanuvchi quruqlikni o'rab turgan qirg'oq hududlarini nazorat qilish orqali shakllantirilishini ta'kidladi. Shuningdek, "Rimland" ustidan hukmronlik qilish dunyo ustidan hukmronlik qilish imkonini berishi mumkinligi haqida fikr yuritadi. Spaykmen ushbu nazarsiyasini quyidagi tezis bilan qisqacha bayon qildi:

*"Kim "Rimland" ni boshqarsa, Yevroosiyoni boshqaradi!*

*Kim Yevroosiyoni boshqarsa dunyoni boshqaradi!"* [2].

Afg'onshunos olim S.Bo'ronov bu gapni biroz o'zgartirib, "Kimki Yevroosiyon suvini boshqarsa, o'sha dunyoni boshqaradi", – deb ta'kidlagan edi [3].

Spaykmen "Rimland" nazariyasi Amerika tashqi siyosatining rivojlanishida, ayniqsa Sovuq urush davrida ta'sir ko'rsatdi. Bu nazariya Amerikaning "Rimland" mintaqasidagi mojarolarga aralashuvi, shuningdek, bu hududda harbiy bazalar va ittifoqlarning rivojlanishi uchun asos sifatida qaraldi [4].

Amerikalik dengiz nazaryotchisi va tarixchisi Alfred Mehen ham suvning geosiyosiy ahamiyatini ilgari suruvchi "Dengiz qudrati" [5] nazariyasini ilgari surdi. Ushbu nazariyaning asosiy mohiyati sifatida u dengizga tutash bo'lgan davlatlar quruqlik bilan o'ralgan davlatlardan ko'ra qudratliroq hamda rivojlanish uchun ko'proq potensialga ega ekanligini yozadi. Uning fikricha, "Dengiz qudarti tushunchasi kuch, potentsial va natijaviy ko'rinishni o'z ichiga olishi kerak. Dengiz kuchining salohiyati dengiz floti, qirg'oqni qo'riqlash, dengiz va fuqarolik-dengiz sanoatining mavjudligi va soni bilan belgilanadi. Bu kuchlarning quruqlik va havo kuchlariga ta'sirini ham shu yerda aytib o'tish mumkin.

Bugungi kunda Afg'oniston va Eron o'rtasida eng katta muammolardan biri aynan suv bilan bog'liq masalalardir. Asosiy masala Afg'onistondan oqib o'tuvchi Helmand daryosidir.

Bu Afg'onistondagi eng uzun daryolardan biri bo'lib, uzunligi 1150 kilometrga yetadi. U Kobuldan 80 km g'arbda Hindukush tog'laridan boshlanib, Unay dovonidan shimoldan, Hazorajotning sharqiy qismlaridan, Behsud, Maydon Vardakda va g'arbda Daykundi va Uruzgondan oqib o'tadi. U janubi-g'arbiy tomonga Dashti Margo cho'li orqali kesib o'tib, Afg'oniston-Eron chegarasidagi Zabul atrofidagi Seyiston botqoqlari va Xomun-i-Helmand ko'li

hududigacha, shuningdek, Afg'oniston janubi-g'arbidagi keng qurg'oqchil mintaqada asosiy suv manbai hisoblanadi. Helmand daryosi havzasi Afg'oniston yer yuzasining qariyb 45% ni tashkil qiladi, ammo daryo mamlakat umumiy suv resurslarining atigi 10% ni qoplaydi xolos [6].

Eron va Afg'oniston o'rtasidagi suv bo'yicha kelishmovchiliklar 1870-yillarga ya'ni Afg'oniston Britaniya nazorati ostida bo'lgan davrga borib taqaladi. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning asosiy tutashgan nuqtasi aynan Helmand daryosidir. Chunki 1919-yilda Eron hukumati aynan Hilmand daryosi nazorati sababli ham Afg'onistonning mustaqilligini tan olishga rozi bo'ladi. Biroq, Afg'oniston 1936-yilda daryoda "Kamolxon" to'g'onini qurishga qaror qilganidan so'ng vaziyat Keskin tus oldi. "Kamolxon" to'g'oni Afg'onistondagi Hilmand daryosi ustidagi Nimro'z viloyatida joylashgan yirik suv xo'jaligi loyihibaridan biri edi.. To'g'on loyihasi boshlandi, ammo 1973-yilda Afg'onistonda monarxiyani ag'dargan davlat to'ntarishi tufayli loyiha to'xtab qoldi. Eronning Helmand daryosida to'g'onlar qurilishiga doim qarshi bo'lganining sababi, Eronning Afg'oniston suvi bilan oziqlanadigan sharqiy hududlari ham suv tanqisligiga duch kelgan va Eron hukumati Helmand daryosida har qanday to'g'on qurilishiga bir necha bor qarshilik qilgan.

1939-yilda Erondan Rezoshoh Pahlaviy hukumati va Muhammad Zohirshoh boshchiligidida Afg'oniston hukumati daryo suvlarini bo'lishish to'g'risida shartnoma imzoladilar, ammo afg'onlar uni ratifikatsiya qilmaydi.



### **Helmad daryosi**

1948-yilda muammoni hal qilish uchun uchinchi tomon ya'ni AQSh aralashuvi sodir bo'ldi. AQSh taklifiga ko'ra uch kishidan iborat komissiya tuziladi va unga Eron va Afg'oniston tomonidan ikki nafar shaxs taklif etiladi. 1951-yil 28- fevral kuni komissiya o'z hisobotini e'lon qiladi va unda Eronning Hilmand daryosidan foydalanishdagi ulushi soniyasiga 22 metr kubni

tashkil etayotganligini yozadi. Ammo, Eron hukumati bu hisobotni tan olmaydi va Eron ulushi aslida bu miqdordan kam ekanligidan norozi bo‘ladi. Bu ham yetmaganday Afg‘oniston hukumati daryoning eng yuqori qismida Argandab (1952) va Kajaki (1953) deb nomlangan ikki yirik suv to‘g‘onlarini qurib bitkazadi [7].

1969-yilga kelib Afg‘oniston hukumati agar Eron hukumati Afg‘onistonga o‘zining Chabahor va Bandar Abbas portlaridan foydalanishga ruxsat bersa, Afg‘oniston ham ko‘proq miqdorda suvni Eronga o‘tkazishga rozi ekanligini bildiradi. To‘rt yildan so‘ng 1973-yilda ikki hukumat o‘rtasida “Hilmand daryosidan foydalanish to‘g‘risida”gi shartnoma tuziladi va muammo hal bo‘ladi va “muzlatiladi” [8].

Shartnoma natijasida Eron hukumati Afg‘onistonga ikki portidan shartlarsiz foydalanishga ruxsat beradi. Ammo bu portlardan foydalanish Ag‘onistondagi 1973-yilgi to‘ntarish, 1979-yildagi Erondagi inqilob, Sovet Ittifoqining Afg‘onistonga bostirib kirishi va 1996-yilda “Tolibon” hokimiyati natijasida amalga oshmagan.

Afg‘oniston hukumati Helmand daryosidan Eronga qarshi foydalanib kelgan. Masalan, Afg‘oniston Islom Respublikasining sobiq prezidenti A. G‘ani Erondagi Afg‘oniston elchixonasida shunday degan edi: “Kobul qo‘shni davlatlar oldida zaif holatda emas. Qo‘shni davlatlar ham Afg‘onistonga muhtoj. Biz muhojirlar muammosini hal qilish uchun Tehronga yolvorganimiz yo‘q. yolvorishning hojati ham yo‘q”. Bu nutqdan shuni anglash mumkinki, sobiq hukumat Eron bilan har qanday tushunmovchilik yoki siyosiy muammoga “Hilmand” daryosida yangi to‘g‘onlar qurish, suv yo‘nalishiga to‘siqlar qo‘yish bilan javob qaytarish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari nutqda sobiq prezident Eronning Huroson viloyatini suv bilan taminlaydigan asosiy qismi Afg‘onistondan oqib o‘tuvchi “Harirud” daryosini ham eslab o‘tadi. Bu ochiqdan ochiq Eron hukumatiga tahdid bilan barobar nutq edi. Harirudga ishora qilib, A. G‘ani shunday deydi: “Agar Eron hukumati muhojirlar muammosini hal qilish uchun chora ko‘rmasa, Kobul Eronning “Haqoba”si bo‘yicha Eron talablarini amalga oshirish zarurligini ko‘rmayapti. Agar Eron afg‘on muhojirlarini deportatsiya qilishda davom etsa, Afg‘oniston bu davlat bilan barcha savdo aloqalarini uzadi” [9].

“Tolibon” 2021-yil avgust oyida Kobul hokimiyatini egallagandan so‘ng “muzlatilgan” muammo yana kun tartibiga chiqa boshlagan. So‘nggi yillarda Afg‘o- nistondagi qurg‘oqchilik tufayli Eronga oqib kelayotgan suv miqdori kamaygani Tehron ma’muriyatini bezovta qila boshladи. “Tolibon” ma’muriyati mintaqadagi qurg‘oqchilik tufayli Helmand daryosidagi Kajaki to‘g‘onida suv yo‘qligi, shuning uchun Eron tomoniga suv yetib bormayotganini ta’kidlamoqda. Eron texnik delegatsiyaning to‘g‘onga tashrif buyurishini va bu holatni tasdiqlashi kerakligini bildirgandi.

2023-yilning avgust oyida Afg'oniston va Eron chegara posti yaqinida qurolli to'qnashuv sodir bo'ldi. Bu to'qnashuv natijasida ikki nafar Eronlik chegarachi va bir nafar "Tolibon" askari halok bo'ldi [10]. Ikki davlat o'rtasidagi bu ziddiyatning asosiy sababi suvdan foydalanish masalasida edi. Eron "Tolibon"ni Helmand daryosidan Eronning qurib qolgan sharqiy hududlariga suv oqimini cheklab, 1973- yilda tuzilgan shartnomani buzganlikda aybladi, bu ayblovni Tolibon rad etdi. "Tolibon" Ichki ishlar vazirligi matbuot kotibi Abdul Nafi Takor "Nimro"z viloyatida Eron chegara kuchlari Afg'oniston tomon o't ochdi, bu esa qarshi javob bilan kutib olindi", – deb bayonot berdi [11]. Eron Tolibonni Hilmand daryosidan Eronning qurib qolgan sharqiy hududlariga suv oqimini cheklab, 1973 yilda tuzilgan shartnomani buzganlikda aybladi, bu ayblovni Tolibon rad etdi.

Ta'kidlash kerakki, Eronning Afg'onistonga katta ta'sir etuvchi kuchli dastaklari mavjud. Eronning Chabahor va Bandar Abbas porlari Afg'onistonga eng yaqin dengiz yo'llariga chiqish imkoniyatini taqdim etadi. Eron Islom Inqilobi Korpusi (EIIK) afg'on qochoqlaridan iborat "Fotimiyun" brigadasini tashkil etgan bo'lib, ushbu korpusning asosiy vazifasi Eronning Suriya, Iraq va Afg'onistondagi manfaatlarini amalga oshirishdan iborat bo'lган. AQSh tomonidan Qosim Sulaymonining o'ldirilishi ham aynan Eronning Afg'onistondagi ta'sirini kamaytirishni maqdsad qilgan edi. Shuningdek Eron Afg'on qochqlari masalasida ham Afg'onistonga bosim o'tkazish va xarbiy-siyosiy maqsadlarda foydalanish uchun yetarli darajada sabab bo'lishi mumkin [12].

Bugungi kunda "Tolibon" Eron geosiyosiy manfaatlarini ta'minlashning muhim dastagi bo'lib kelmoqda. Xususan, Eron uchun Tolibon suriya va iroqda faollashgan va Afg'onistonda ham tehton manfaatlariga havf soluvchi "ISHID" terroristik guruxiga qarshi kurashda muxim rol o'yashi mumkin [13].

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi vaqtga kelib Afg'oniston Hilmand daryosining 80 % miqdoridagi suvidan foydalanadi. Daryo suvining to'xtab qolishi albatta unga qo'shni bo'lган va ushbu daryodan foydalanish huquqiga ega bo'lган Eron hukumatini tashvishlantiradi. Shuning uchun ham bu muammo bugungi kunda ikki davlat uchun qayta jonlandi. Mummoni hal etishning bir qancha yechimlari sifatida quyidagilarni taklif etamiz:

- Suv resurslaridan foydalanishda xalqaro huquq normalariga har ikkala tomonning to'liq amal qilishi;
- 1973- yilgi Hilmand daryosidan foydalanish bo'yicha shartnoma shartlarini to'laligicha bajarish yoki yangi shartnom imzolash.

- Muammoga tashqi kuchlarning aralashuvini cheklash va ikki tomonlama muzokaralar orqali hal etish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. S. Bo'ronov. Markaziy osiyoda suv geosiyosati: tahlikalar tahlili. (Water geopolitics in Central Asia: analysis of trends) – T.: Oriental urnal of history, politics and low, 2023. – B. 27-34., Эргашев А., Жумақул Д. Сув жанги ёхуд геосиёсий курашлар. (Water battle or geopolitical struggles.) Тафаккур журнали, 2013 йил 1-сон, Юнусов Х., Маматова З. Трансчегаравий дарёлар ва йирик тўғонлар: таҳдидлар, талофтотлар ва хафсизлик чоралари. (Transboundary Rivers and Large Dams: Threats, Hazards and Safeguards.) – T.: “Янги аср авлоди”, 2015., N. J. SPYKMAN. THE Geography of the Peace. – New York.: Harcourt, Brace and Company, 1944. – 85 p., Mahan A.T. The influence of Sea Power upon history (1660-1783). – Boston, 1890. – 685 p., N. SAEEDI. The Silent War Afghanistan and Iran Water Crisis. – A.: Ahhvü Edebiyat Fakültesi Dergisi, 2022. – P. 49-56., ALIKHANI, A. The Shah and I (London: I. B. Tauris & Co. Ltd., 1991). DEHGAN, A. PALMER-MOLONEY, J. and MIRZAEE, M. “Water Security: Potential Destabilization in Western Afghanistan”, 2009.
2. N. J. SPYKMAN. THE Geography of the Peace. – New York.: Harcourt, Brace and Company, 1944. – 85 p.
3. S. Bo'ronov. Markaziy osiyoda suv geosiyosati: tahlikalar tahlili. (Water geopolitics in Central Asia: analysis of threats) – T.: Oriental urnal of history, politics and low, 2023. – B. 27-34.
4. Heartland and Rimland Theories. 2023. <https://licchavilyceum.com/heartland-and-rimland-theories>.
5. Mahan A.T. The influence of Sea Power upon history (1660-1783). – Boston, 1890. – 685 p.
6. N. SAEEDI. The Silent War Afghanistan and Iran Water Crisis. – A.: Ahhvü Edebiyat Fakültesi Dergisi, 2022. – P. 49-56.
7. Office of the Historian, Bureau of Public Affairs, “Foreign Relations of the United States, 1950, The Near East, South Asia, Africa,” Vol. V, Department of State, <https://history.state.gov/historicaldocuments/frus1950v05/d824>.
8. The Afghan-Iranian Helmand-River Water Treaty.
9. [http://internationalwaterlaw.org/documents/regionaldocs/1973\\_Helmand\\_River\\_Water\\_Treaty-Afghanistan-Iran](http://internationalwaterlaw.org/documents/regionaldocs/1973_Helmand_River_Water_Treaty-Afghanistan-Iran).
10. <https://www.dw.com>, retrieved 25 September 2021.

11. Опубликованы подробности конфликта на ирано-афганской границею 2023. <https://ru.irna.ir/news/85123668>.
12. At least three killed in clash on Iran-Afghan border.2023. <https://www.reuters.com/world/two-killed-clash-iran-afghan-border-taliban-official-says-2023-05-27>.
13. S. Bo‘ronov. С. Бўронов. Афғонистонда тинчлик ва барқарорлик ўрнатиш жараёнларида Ўзбекистон геосиёсати. (Geopolitics of Uzbekistan in the process of establishing peace and stability in Afghanistan). Monografiya. – Т.: -2021, 204 b.
14. S. Bo‘ronov. Эроннинг Афғонистон геосиёсий тенденсияларидаги ўрни. (The role of Iran in the geopolitical trends of Afghanistan) – Т.: TDShU, 2020. – B.352-360
15. Mamadjonov, A. B. (2023). ANALYSIS OF THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF " SOFT POWER ". Oriental Journal of History, Politics and Law, 3(03), 272-279.
16. Mamadjonov, A. B. O. G. L. (2021). TURKIYANING XALQARO TASHKILOTLARDAGI O ‘RNI VA ROLI: NATO MISOLIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 427-435.
17. Azimov, H. Y. (2022, June). THE ROLE OF THE SYRIAN CRISIS IN ENSURING SECURITY IN THE MIDDLE EAST. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 90-92).
18. Yakubovich, A. H. (2019). The emergence of the Syrian crisis and the impact of the external forces on it. Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research, (4 (6)), 92-97.
19. Azimov, H. Y. (2022). Main directions of modern international security approaches. International journal of social science research and review, 5(2), 151-157.
20. Boronov, S. (2022). Internal and external factors of taliban origin. Journal of Social Research in Uzbekistan, 2(02), 15-23.